

J. ESHNAZAROV

JISMONIY MADANIYAT TARIXI VA BOSHQARISH



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

J. ESHNAZAROV

JISMONIY MADANIYAT TARIXI VA BOSHQARISH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
to'monidan darslik sifatida tavsiya etilgan*


TOSHKENT — 2008

J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish.
T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008., 388 bet.

Mazkur darslik respublika oliy o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari uchun tayyorlangan. Darslik kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi ilmiy pedagogik faoliyatni takomillashtirish va xalqaro sport harakati tarixi, O'zbekiston jismoniy madaniyat tarixi hamda jismoniy madaniyat harakatini boshqarish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan talabalarni tanishtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, darslikdan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning bo'lajak mutaxassisleri ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: **G'ulomov A.X.** — SamDU, sport-pedagogika fanlarini o'qitish uslubi katedrasi mudiri, dotsent;
Xoldorov T.X. — Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, «Talaba» Respublika sport uyushmasi ijrochi direktori.

ISBN 978-9943-10-122-7



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.

KIRISH

Jismoniy madaniyat jahon xalqlarining umumiy madaniyati mazmunidan chuqur o'rin egallamoqda. Uni o'qitish, o'rganish va ilmiy tadqiqot olib borish bugunning dolzarb muammolaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov: «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»¹, - deb yangi tariximizga yo'l ochib berdi. Buni yurtimizning mustaqilligi yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy madaniy islohotlarning samarali natijalarida ko'rish mumkin.

Jahon xalqlari tarixi, shuningdek, O'zbekiston xalqlari tarixida jismoniy tarbiya va sport tarixining ham o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy o'rni g'oyat kattadir.

Jismoniy tarbiya harakatida mutaxassis kadrlarga bo'lgan talablar va ehtiyojlar ijtimoiy turmush hamda mehnatda, ayniqsa, Xalqaro sport harakatida doimiy ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan jismoniy tarbiya, sport, xalq milliy o'yinlari va sayohatlar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Sog'lom avlod davlat dasturi, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarini hayotga singdirish, bolalar sportini rivojlantirish, o'quvchi yoshlarning «Umid nihollari», «Barkamol avlod», sport o'yinlari hamda talabalar «Universiada»larini tashkil qilishda asosiy maqsad buyuk kelajakning har tomonlama barkamol avlodlarini tarbiyalashdir. Bu jismoniy tarbiya va sport mutaxassis-

¹ Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'uli». T., «O'zbekiston», 1992, 71-bet.

larining zimmasiga g'oyat katta sharaflı mas'uliyatni yuklamoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar tayyorlash va ularning nazariy bilim hamda amaliy malakalarini oshirishda «Jismoniy tarbiya va sport tarixi hamda jismoniy madaniyat harakatini tashkil etish va boshqarish» fani asosiy mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti (O'zDJTI) va Respublika oliy o'quv yurtlarininig jismoniy tarbiya fakultetlari, shuningdek, pedagogika kasb-hunar kollejlarining jismoniy tarbiya bo'limlari, Olimpiya o'rinbosarlari kasb-hunar kollejlarida Davlat ta'lim standartlari asosida «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» fan sifatida o'qitib kelinmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari mazmunida jismoniy madaniyat harakati bilan bog'liq barcha tadbirlar o'z ifodasini topmoqda. Bunda «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» fanidan maqsadli foydalanish amalga oshirilmoqda.

«Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari asosida maktabgacha ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish va mehnat jamoalari, aholi istiqomat va dam olish joylari, ayniqsa, o'quvchi yoshlar va talabalarning yozgi dam olish hamda sport-sog'lomlashtirish oromgohlarida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga keng o'rin berilmoqda. Aholining salomatligini yaxshilash, barkamol avlodning ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda jismoniy tarbiya va sportning nazariy asoslarini singdirish muhim vazifalardan biri qilib qo'yilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportining mohiyatini bunday tushuntirish, ularni targ'ibot qilish, barcha sport turlari tarixi, xalq milliy o'yinlari tarixi bilan tanishtirish muhim ahamiyatga egadir. Bu yo'lda ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan madaniy-tarbiyaviy va ilmiy meroslar mazmunidagi jismoniy tarbiya hamda uning tarixi asosida ta'lim-tarbiya berishni davr taqozo etmoqda.